

*Universitet rektorining
2024 yil “21” maydag'i
123-sonli buyrug‘iga
4-ilo va*

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti aloqa kanallari orqali
korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish
va ko‘rib chiqish
REGLAMENTI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament Toshkent arxitektura-qurilish universitetida (keyingi o‘rinlarda – universitet) korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarini ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament universitedagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishslashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, universitet rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ishonch telefonı – universitetga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali universitetda korrupsiyaviy xatti- harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va yoki yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish,

undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish yoki olish, bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki me’yoriy-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, **universitet** xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan universitet nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taalluqli xabar – universitetdagи korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – universitet bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Universitet korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfidensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan universitet tizimidagi barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyojsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, universitetdagи bo`limlar, tashkilotlar uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – universitet aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishslash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan universitet xodimi xabarning mazmunidan qat’iy nazar biror-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari universitet tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarini qo‘llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, universitet aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

Taalluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- Universitetning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;
- Universitet telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali); universitetning telegram boti (@_____bot);
- Universitetga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;
- Huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;
- mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

Universitet aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, universitet binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgantaalluqli xabarlarni qabul qilish

5. Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi universitetning aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

6. Universitetda quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Vaziriar Mahkamasining **2018-yil 7-maydagi 341-son qarori** bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom va universitetning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun universitet rahbariga kiritiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- universitetning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;
- universitetning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);
- universitetga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

7. Universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi mas’ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taalluqli xabar kelib tushganda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi mas’ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma

yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib, zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni reestrda ro‘yxatga oladi va ma’lumotni universiteti rahbariga kiritadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi mas’ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni Dushanbadan Jumagacha soat 09:00dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

8. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalilanidigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfidensialligini bildiradi. Mazkur ma’lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

9. Universitet ma’muriyati taalluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko‘rib chiqish uchun universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limiga topshiradi.

10. Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi taalluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda universitet tizimida korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o‘rinlarda – Reestr) ro‘yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko‘rib chiqishi lozim.

11. Universitet murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda universiteti mas’ul xodimi, imkoniyat bo‘lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- universitetga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog‘lana olmasliklari mumkinligi haqida ma’lum qilishi;
- qo‘srimcha zarur ma’lumot olish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda xabarni to‘liq va hartomonlama o‘rgana olmasliklarini bildirishi;
- murojaatchiga u bilan bog‘lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko‘rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);
- murojaatchi o‘z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

12. Universitet xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbazarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

13. Olingan xabarlar bo‘yicha barcha taalluqli materiallalar, hujjatlar va ma’lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishslash tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shuningdek, 10 yildan kam bo‘lmagan muddatga saqlanishi kerak.

14. Taalluqli xabar universitetga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodim zudlik bilan yozma shaklda rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ulni (mavjud bo‘lsa) xabardor qiladi, u o‘z navbatida ushbu xabarni universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi 11-bobda bayon etilgan tartibga muvofiq ko‘rib chiqadi.

15. Universitet o‘z Reestrini yuritadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagixabarlarni ko‘rib chiqish

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limiga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu tizimning mas’ul xodimlari yoki universitet rahbarining topshirig‘iga asosan boshqa bo‘limlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

17. Korrupsiyaviy harakatlari to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga harakatlar ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

18. Taalluqli xabar kelib tushganda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mas’ul xodimi dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taalluqlilagini tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma’lumotni universitetga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbazarlikka va (yoki) manfaatlar to‘qnashuviga tegishlilagini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Ichki Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunida amalga oshiriladi.

19. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat‘i nazar, bu haqdagi axborot Reestrga kiritiladi.

20. Agar Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kunida universitetining tegishli bo‘limiga bildirgi asosida o‘tkazilishi lozim.

21. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va yoki manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumot hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusibilan chiqadi.

22. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari, universiteti ma’muriyati tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

23. Murojaatga javob Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan tayyorlanib, universitet ma’muriyati imzosi bilan

rasmiylashtiriladi.

24. Taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra o‘rganish natijalari va qo‘llanilgan ta’sir choralarini ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

25. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taalluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

1. Reestr dan Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi xodimlari, xabarlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari (faqat shunday xabarlargacha doir), universitet rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishini nazorat qiluvchi o‘rinbosari foydalanishi mumkin.

2. Reestr ma’lumotlari asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi har chorakda universitet rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlargacha taalluqli bo‘lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko‘rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;
- korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;
- ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;
- taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;
- murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalilaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim

Toshkent arxitektura-qurilish universitetida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamentiga ilova

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida
korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul
qilish**
REESTRI

T/ r	Xabar kelib tushgansana Hudud	Xabarning toifasi (korrupsiya xatti-harakat, manfaatlар)	Murojaatlар bilan ishlash tizimida ro'yxatga olingan sana va raqami	Xabar yuboril- gan aloqa kanali	Murojaatchi ma'lumotlari (jismoni yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma'lumotlari)	Xabarning qisqacha mazmumi	Xabar taalluqli bo'lgan bo'lim	Ko'rib chiqish natijalari	qanoatlantrildi/ tushuntirish berildi/ ko'rmasdan.	Murojaatchiga iyob yuborilgan sana Ijrochi	Xabarni ko'rib chiggantuzilma Izoh
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											
:											